

O'ZBEKISTON TARIXI DARSLARIDA TA'LIM VOSITALARIDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sabitova Kamola Furkatovna

Nizomiy nomidagi TDPU Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

Akramov Asrorbek Isroiljon o'g'li

Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix darslarida ta'lim vositalaridan foydalanishning ahamiyati va uning ta'lim jarayoniga qanday ta'sir qilishi haqida so'z boradi. Tarix fanini o'qitishda didaktik vositalar, ya'ni audiovisual materiallar, interaktiv texnologiyalar va boshqalar, o'quvchilarning tarixiy bilimlarni o'zlashtirishini yengillashtiradi hamda darslarni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Maqolada, ta'lim vositalarining turli shakllari va ularning metodik qo'llanilishi, shuningdek tarix darslarida innovatsion usullarni qo'llashning o'qitish sifatiga qo'shgan hissasi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchilarni tarixiy tafakkur va mantiqiy fikrlashga o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar va vizual materiallardan foydalanishning metodik jihatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar : O'qitish metodlari, usul, og'zaki bayon metodi, ko'rsatmali metod, amaliy metod, ma'ruza, suhbat, hikoya, zamonaviy ta'lim vositalari, chizmali organayzerlar, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, electron darslik.

Annotation: This article discusses the importance of using educational tools in history lessons and how it affects the educational process. Didactic tools in teaching history, namely audiovisual materials, interactive technologies, etc., facilitate students' assimilation of historical knowledge and make lessons more interesting and effective. The article provides detailed information on various forms of educational tools and their methodological application, as well as the contribution of the use of innovative methods in history lessons to the quality of teaching. The methodological aspects of using modern technologies and visual materials in teaching students historical thinking and logical thinking are considered.

Key words : Teaching methods, method, oral presentation method, instructional method, practical method, report, conversation, story, modern teaching methods, graphic organizers, modern information and communication technologies, electronic textbook.

Абстрактный: В данной статье обсуждается важность использования образовательных инструментов на уроках истории и то, как это влияет на процесс обучения. Дидактические средства обучения истории, а именно аудиовизуальные материалы, интерактивные технологии и т. д., способствуют усвоению учащимися исторических знаний, делают уроки более интересными и эффективными. В статье представлена подробная информация о различных формах образовательных средств и их методическом применении,

а также о вкладе использования инновационных методов на уроках истории в качество обучения. Рассмотрены методические аспекты использования современных технологий и наглядных материалов в обучении студентов историческому мышлению и логическому мышлению.

Ключевые слова : Методы обучения, метод, метод устного изложения, метод обучения, практический метод, лекция, беседа, рассказ, современные средства обучения, графические органайзеры, современные информационно-коммуникационные технологии, электронный учебник.

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi tarixchi pedagoglarning metodik bilimlarga ega bo'lishlari uchun va kasbiy faoliyatni tashkil etishda ulardan foydalanishga kompetentsiyaviy yondashuvni shakllantirishi talab etiladi. Tarix oq'itish metodikasidan egallangan bilimlarni o'quv jarayonida muvaffaqiyatli foydalanish, bunda esa tarixchi pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda metodik faoliyatni tashkil etish, metodik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Darsda samaradorlikni oshirish uchun avvalom bor o'qituvchining mahorati va ijodkorligi bo'lib, bunda o'qituvchi tomonidan darsning maqsadiga qarab turli vositalardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Ta'lim vositalari – o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Ma'ruzani faollashtirish, qiziqarli va samarali o'tkazish uchun tarix ta'lim berish vositalaridan keng foydalanish o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Chunki ta'lim vositalari – o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallardir. Ta'lim vositalarining quyidagi turlari mavjud: Ta'limning texnik vositalari - talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi³. Bularga misol qilib, diaproecktr grafoproecktr, doska bloknot, doska stend, flipchart, videofilmlar, yozuv taxtasi va hokazolarni olishimiz mumkin. Yordamchi ta'lim vositalariga esa grafiklar, chizmalar, namunalar bo'lib, bularga quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin: model, mulyajlar, grafik, jadval, diagrammalar, namunalar, chizmalar, sxema va boshqalar.

O'quv-uslubiy materiallar – o'quv materiallari ya'ni, darslik, xrestomatiya va boshqa o'quv qo'llanmalar yordamida o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar, yo'riqnoma, o'quv topshiriqlari yozilgan tarqatmalar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar. Misol uchun: Ish varaqasi, eslatma, nazorat varog'i va matnlar. Bular o'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi. Dono xalqimizda ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi degan naql bor. O'qituvchining faqatgina

³ Mansurov U. „ Tarix o'qitish metodikasi “. 2019

og'zaki bayon metodi yordamida dars tashkil etilsa o'quv materialini o'zlashtirish ko'rsatkichi 10% bo'lishi ehtimoldan yiroq yemas. Bunday sharoitda dars o'tish samarasi past bo'ladi⁴. Mashg'ulotlarda o'quv materialini ham ko'rgazmali shaklda taqdim etish, shu bilan birga o'quvchilarni amaliy ish jarayonini ham tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ta'lim vositalari. Chizmali organayzerlar Chizmali (grafik) organayzerlar texnikasi yordamida o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish-darsning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb yetadi. Grafik organayzerlarga-toifalash jadvali, BBB, konseptual jadval, venn diagrammasi, insert, klaster, nima uchun, qanday, va boshqa chizmali topshiriqlarni mashg'ulotlarda bajarish kabilar kiradi. Bunda o'quvchilar turli jadval yoki chizma ko'rinishida bo'lgan o'quv topshiriqlarni bajaradilar. Quyida keltirilgan o'zlashtirish foizlariga e'tibor qaratilsa, o'quv topshiriqlarining naqadar bilimni o'zlashtirish jarayonida ahamiyati katta ekanligini bilamiz :

5 % - og'zaki ravishda materiallarni o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'lgan sharoitda dars o'tish samarasiz bo'ladi ;

10 % - mashg'ulotlarda o'quv materialini ko'rgazmali shaklda taqdim etish lozim. Agar ko'rsatmali materiallardan foydalanilsa va qo'shimcha material o'qituvchi tomonidan o'qib berilsa;

20 %- ham ko'rib, ham eshitsak, ya'ni texnik vositalardan foydalanilsa;

50 %- bahs munozaraga kirishilsa;

75 %- mavzu bo'yicha amaliy topshiriqlar bajarilsa;

90 %- muhokama qilib bir-biriga o'rgatishsa

O'quv mashg'ulotlarida pedagogic texnologiyalar, interfaol usullar, chizmali organayzerlar yordamida ishlab chigilgan o'quv topshiriqlarni o'zida mujassam etgan holda, ishlab chiqilgan „Ish daftari“ ni tayyorlash va ulardan mashg'ulotlarida keng foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, tarix fanidan ish daftarlarini ishlab chiqish va dars jarayoniga tatbiq etish darsni natijaviyligini, effektini sezilarli darajada yuqoriga ko'taradi. Bu ish daftarlaridan o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quvchi darsning har bir bosqichida unumli foydalanadi. Masalan: - darsning tashkiliy qismi, ya'ni refleksiya bosqichida avval o'tilgan mavzuni qisqa takrorlab bugungi mavzu bilan bog'laydi. Yangi mavzu bilan bog'liq jihatlar, terminlar, tayanch atama va tushunchalar, voqea va jarayonlarning o'xshashligini qiyoslaydi, esga solishga yordam beradi; seminar mashg'ulotlarida bilimlarning nazoratini amalga oshirishda yozma ravishda tayyorlagan topshirig'i bilan darsda kichik guruhlarda o'rtoqlashadilar, bunda ular individual hamda guruhlarda ham baholanadilar; darsning mustahkamlash bosqichida - bu ish daftariga talaba ko'proq murojaat qiladi⁵. Bunda turli chizmali organayzerlar, intrefaol usul va pedagogic

⁴ Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.

⁵ Sagdiev A. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent, 2008

texnologiyalar yordamida o'tilgan o'quv topshiriqlari, yo'riqnomalarni beradi. Mavzu bo'yicha o'quvchilarning egallagan yangi bilimlarini mustahkamalshga qaratilgan uyga vazifa bosqichida - o'quvchi uy vazifasini bajaradi. Aniq o'quv topshiriqlari yordamida turli vazifalarni bajaradi. Shunday topshiriqlarni berish kerakki, o'quvchining bu vazifalarni bajarishi davomida ko'p marta darslikka murojaat etishi va nihoyat mavzuning mohiyatini tushunib, anglab olish bosqichiga erishishi kerak. Ish daftarida metodik qismi ya'ni o'quv topshiriqlarini tayyorlashda didaktik talablarga amal qilinadi. Ish daftarida fan bo'yicha ta'lim resurslarini yaratish va ulardan bilim berishda keng foydalanishni yo'lga qo'yish muhimdir. „Resurs“ iborasi hozirgi vaqtda juda keng ma'noda ishlatiladi. „Ta'lim resursi“ deganda esa o'quv jarayoni davomida bilim olishda foydalaniladigan turli xil ko'rinish va shakllardagi o'quv materiallari manbasi tushuniladi. Boshqacha aytganda ta'lim resursi o'quv jarayonida foydalaniladigan axborotlar manbasidir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'lim resurslarini quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1.Matn, rasm, sxema va jadvallarni o'z ichiga olgan an'anaviy nashr materiallari (darslik, o'quv qo'llanma, amaliy mashg'ulotlar bo'icha qo'llanmalar, ma'ruzalar matni, katologlar, ma'lumotnomalar, tarqatma masalalar to'plami, lug'atlar, materiallar, turli xil uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, savol va topshiriqlar va boshqalar.).

2.O'qish, mustaqil ta'lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun topshiriqlar: o'quv mazmuni yoritilgan va o'quvchi bilan o'zaro muloqatga yo'naltirilgan hamda ma'lum pedagogik vazifalarni yechish uchun mo'ljallangan topshiriqlar majmui yoki tizimlari.

Xarita (Karta so'zi aslida lotincha „chartes“ - so'zidan olingan bo'lib, yozuv uchun mo'ljallangan papirus varag'i degan ma'noni bildiradi) - bu tarixiy hujjat bo'lib voqealar davomiyligi haqida hikoya qiluvchi, sodir bo'lgan voqealar, vayron bo'lgan va yana tiklangan shaharlar, daryo o'zanlarining o'zgarishi, unutilgan qadimgi sug'orish inshootlari, xalqlar tarixini hududlar bilan bog'lab o'rganadi. Tarixiy xaritalar, asosan, o'tmishdagi voqea va hodisalarni tasvirlab, jamiyat tarixidagi muhim voqealarning geografiya bilan o'zaro bog'liqligini o'ganadi. Tarixiy kartalar qadimgi madaniyat o'choqlari, davlatlar, ijtimoiy harakatlar, savdo yo'llari va boshqalarni ko'rsatishga xizmat qiladi⁶.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish Axborot - lotinchadan "Information" tushuntirish, bayon qilish degan ma'noni anglatadi. Shartli belgilar yordamida shaxslar, predmetlar, dalillar, voqealar, hodisalar va jarayonlar haqida, ularni tasvirlash shaklidan qat'iy nazar uzatiladigan va saqlanadigan ma'lumotlar. Ta'limda axborot texnologiyasi-oldinga qo'yilgan ta'limiy maqsadlarga erishishga imkon beradigan, nazariy asoslangan ta'lim jarayonini amalga oshirishning shakllari, uslublari va vositalarining yig'indisidir.

⁶ Sobitova K. Maktab ta'limida tarix darslarini tashkil etishda xaritalardan foydalanishning zamonaviy metodlari „Central Asian Journal of Education and Innovation“. 2024

Bunda u tegishli ilmiy modellashtirishga (loyihalashtirishga) tayanadi, bu jarayonda ushbu maqsadlar bir xil ma'noda beriladi hamda o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini uni rivojlantirishning muayyan bosqichida ob'yektiv ravishda bosqichma-bosqich o'lchash va baholash imkoniyati saqlanadi.

Kundalik turmushda turli ko'rinishdagi axborotlar masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli (audio), rasmlil, video va boshqa axborotlar bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Har bir turdagi axborot bilan ishlash (yig'ish, saqlash va h.k.) uchun har xil texnik xarakteristikalariga ega bo'lgan axborot qurilmalari kerak bo'ladi. Axborot texnologiyasidan foydalanish va uni biror-bir sohaga tatbiq etish o'z ichiga qator vazifalarni oladi. Quyida axborotlashgan faoliyat ob'ektlari haqida gap yuritamiz. Bunday ob'yektlarga sonlar (o'lchash va modellashtirish natijalari), matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, rasmlar, chizmalar va animatsiyalar, ovozli obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa) va boshqalar kiradi.

Foydalanuvchining mustaqil va ongli ravishda olib boradigan faoliyatiga axborot ob'ektlarini yaratish, kerakli axborot ob'yektlarini izlash, axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va ajratib olish, tashkillashtirish, kerakli ko'rinishda tasvirlash, axborot ob'ektlarini (matn, suhbat, rasm, o'yin va boshqa ko'rinishda) uzatish, modellashtirish, loyihalash, ob'ektlarni rejalashtirish va boshqalar kiradi. Axborot texnologiyasi modellari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o'zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta'minoti;

- uskunaviy dasturiy ta'minot;

- virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar musiqalar, fizik modellar, geografik xaritalar va h.k.;

- axborotlar majmui-ma'lumotnomalar, entsiklopediyalar, virtual muzeylar va h.k.;

- texnik ko'nikmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuidan tugmachalarga qaramasdan ma'lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o'zlashtirish va h. k.)

Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini tahrir qilish, talabalar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o'quvchi talabalar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ta'limni axborotlashtirish - keng ma'noda ta'lim sohasini metodologiya, o'qitish maqsadlarining psixologik-pedagogik tadbig'iga yo'naltirilgan yangi axborot texnologiyalari vositalarini samarali foydalanish va yaratish (qayta ishlash) amaliyoti bilan ta'minlash sifatida qaraladi. Bundan tashqari, axborotlashtirish masofali o'qitish tizimining taraqqiyoti uchun baza bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tishim joizki axborotlashtirish jarayonida ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalari vositalaridan keng ko'lamda foydalanish amalga oshiriladi. Ta'limni axborotlashtirish, birinchi navbatda quyidagilarni nazarda tutadi:

- kompyuter texnikasi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarning zamonaviy vositalarini tizimli o'rganish, tashkil etish va foydalanishni;
- talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, o'quv va metodik ta'minlashni;
- o'qituvchilar tomonidan zaruriy o'quv-metodik ta'minotni yaratish bo'yicha ishlarni;
- axborot texnologiyalarini samarali qo'llanilishidan vujudga kelayotgan yangi imkoniyatlarni hisobga olgan holda o'quv jarayonini takomillashtirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mansurov U. „, Tarix o 'qirtish metodikasi “. 2019
2. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.
3. Sagdiev A. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent, 2008
4. Sobitova K. Maktab ta'limida tarix darslarini tashkil etishda xaritalardan foydalanishning zamonaviy metodlari „Central Asian Journal of Education and Innovation“. 2024